

# **JON STENBEKNING “THE PEARL” VA “THE CHRYSANTHEMUMS” ASARLARIDA BADIY DETALNING POETIK FUNKSIYASI**

**Axmedova Gulasal Botiraliyevna**

“Nova Academy” ingliz tili o’qituvchisi

E-ORCID: 0009-0002-2484-0795

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Jon Stenbekning *The Pearl* va *The Chrysanthemums* asarlarida badiiy detalning poetik funksiyasi tadqiq etiladi. Tadqiqotda badiiy detal nazariyasi asosida predmet, peyzaj, rang, ramziy va psixologik detallar tahlil qilinadi hamda ularning asar g’oyasini ochish, qahramonlar xarakterini shakllantirish va badiiy-estetik ta’sirni kuchaytirishdagi o’rni aniqlanadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik va poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, Stenbek badiiy detallarni nafaqat tasvir vositasi, balki muallif konsepsiyasini ifodalovchi muhim poetik unsur sifatida qo’llaydi. *The Pearl* asarida marvarid, chayon va kanoe obrazlari ramziy ma’no kasb etsa, *The Chrysanthemums* hikoyasida xrizantema guli, bog’ va kiyim detallarining qahramon ruhiy olamini ochishdagi funksiyasi ustuvor ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari Steinbeck poetikasida badiiy detalning estetik va semantik imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

**Kalit so’zlar:** Jon Stenbek, badiiy detal, poetik funksiya, *The Pearl*, *The Chrysanthemums*, ramziy detal, psixologik detal, poetika.

## **THE POETIC FUNCTION OF ARTISTIC DETAIL IN JOHN STEINBECK’S “THE PEARL” AND “THE CHRYSANTHEMUMS”**

**Abstract:** This scientific article examines the poetic function of artistic detail in John Steinbeck’s *The Pearl* and *The Chrysanthemums*. The study identifies and analyzes symbolic, psychological, landscape, object, and color details, revealing their role in shaping characters, conveying the author’s artistic vision, and strengthening

the aesthetic impact of the texts. The research employs comparative- typological, semantic, and close-reading methods to explore the functional significance of artistic details in both works. The findings demonstrate that Steinbeck uses artistic detail not merely as a descriptive element but as a significant poetic device that enhances symbolic meaning, reveals characters' inner worlds, and reflects social and philosophical ideas. In *The Pearl*, such details as the pearl, the scorpion, and the canoe function as central symbols, whereas in *The Chrysanthemums*, chrysanthemums, the garden, and clothing serve as psychological and symbolic details that express the protagonist's emotional and spiritual state. This research contributes to a deeper understanding of Steinbeck's narrative poetics and the artistic functions of detail in his prose.

**Key words:** John Steinbeck, artistic detail, poetic function, *The Pearl*, *The Chrysanthemums*, symbolism, narrative poetics.

## **ПОЭТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ДЕТАЛИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ДЖОНА СТЕЙНБЕКА “ЖЕМЧУЖИНА” И “ХРИЗАНТЕМА”**

**Аннотация:** В данной научной статье исследуется поэтическая функция художественной детали в произведениях Джона Стейнбека “Жемчужина” и “Хризантемы”. На основе теории художественной детали анализируются предметные, пейзажные, цветовые, символические и психологические детали, раскрывается их роль в создании художественного образа, выражении художественного образа, выражении авторской концепции и усилении эстетического воздействия произведений. В исследовании использованы сравнительно-типологический, семантический методы и метод “близкого чтения” текста. Результаты показывают, что художественная деталь в произведениях Стейнбека выступает не только средством описания, но и важным поэтическим компонентом, раскрывающим внутренний мир персонажей, символическое содержание и философскую идею произведений. В

повести “Жемчужина” ключевыми символическими деталями являются жемчужина, скорпион и лодка, тогда как в рассказе “Хризантемы” цветы хризантемы, сад и одежда выполняют важные психологические и символические функции. Полученные результаты позволяют глубже раскрыть особенности поэтики прозы Джона Стейнбека и значение художественной детали в структуре его произведений.

**Ключевые слова:** Джон Стейнбек, художественная деталь, поэтическая функция, “Жемчужина”, “Хризантемы”, символизм, психологическая деталь, поэтика прозы.

## KIRISH

XX asr Amerika adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Jon Stenbek (1902-1968) realizm an'analarini chuqur psixologik tasvir, ramziy ifoda va falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashtirgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning nasriy asarlarida inson va tabiat, shaxs va jamiyat, erkinlik va ijtimoiy adolatsizlik o'rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan aks ettirilgan. Adibning badiiy uslubida detal alohida poetik ahamiyat kasb etib, u nafaqat tasviriy vosita, balki muallifning estetik konsepsiyasini ifodalovchi, qahramon ruhiyati va asarning falsafiy mazmunini ochib beruvchi funksional birlik sifatida namoyon bo'ladi [1].

Adabiyotshunoslikda badiiy detal badiiy matnning semantik yaxlitligini ta'minlovchi muhim poetik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Detal yordamida yozuvchi voqelikning muayyan jihatini ajratib ko'rsatadi, obrazning individual xususiyatlarini aniqlashtiradi hamda matnning ramziy qatlamini shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy poetika va narratologiyada detalning kompozitsion, semantik va estetik funksiyalarini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi[2].

Jon Stenbek ijodi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda asosan yozuvchining realizm poetikasi, ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ekologik tafakkuri hamda ramziy obrazlar tizimi tahlil qilingan. Xususan, Peter Lisca, Jackson J. Benson, Susan Shillinglaw va Jay Parini kabi olimlarning tadqiqotlari Steinbeck

poetikasining turli jihatlarini yoritishga xizmat qilgan. Biroq **The Pearl** va **The Chrysanthemums** asarlaridagi badiiy detalning poetik funksiyasini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida kompleks o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar yetarli darajada emas. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi Jon Stenbekning **The Pearl** va **The Chrysanthemums** asarlarida qo'llangan badiiy detallarni aniqlash, ularni tipologik jihatdan tasniflash hamda ularni tipologik jihatdan tasniflash hamda ularning poetik, semantik va estetik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida badiiy detal nazariyasi, poetik tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, semantik tahlil va close reading metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari Steinbeck nasrida badiiy detalning obraz yaratish, ramziy ma'no hosil qilish, qahramonning ichki dunyosini ochish hamda muallifning estetik konsepsiyasini ifodalashdagi o'rnini yangi ilmiy nuqtai nazardan yoritishga xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jon Stenbek ijodi XX asr Amerika adabiyotshunosligida eng ko'p o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda yozuvchining realizm poetikasi, ramziylik tizimi, inson va tabiat munosabati hamda narrativ uslubi keng tahlil qilingan [3-4]. Biroq **The Pearl** va **The Chrysanthemums** asarlaridagi badiiy detalning poetik funksiyasini qiyosiy-tipologik asosda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi [5].

Peter Lisca Steinbeck poetikasini tahlil qilar ekan, yozuvchi asarlarida badiiy detallar ramziy ma'no hosil qilish va qahramon xarakterini ochishda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi[6]. Jackson J. Benson esa Stenbekning ijodiy uslubi real hayot kuzatuvlari va puxta tanlangan detallarga asoslanganligini qayd etib, har bir detal kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashini ko'rsatadi[7]. Susan Shillinglaw tadqiqotlarida **The Chrysanthemums** hikoyasidagi tabiat va gul obrazlari ayol ruhiyati hamda erkinlik timsoli sifatida talqin etiladi[8]. Jay Parini esa Stenbek nasrida ramziy detal yozuvchi estetik konsepsiyasining ajralmas qismi ekanligini asoslaydi[8].

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy detal poetika va badiiy mahorat muammolari doirasida tadqiq etilgan bo'lsa-da, mazkur nazariy qarashlar Jon Stenbekning **The Pearl** va **The Chrysanthemums** asarlariga kompleks ravishda tatbiq

etilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Jon Stenbekning *The Pearl* va *The Chrysanthemums* asarlarida qo'llangan badiiy detallarning poetik funksiyasini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini badiiy detal nazariyasi, poetika, narratologiya va qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy konsepsiyalari tashkil etadi[9].

Tadqiqot materiali sifatida Jon Stenbekning *The Pearl* (1947) povesti va *The Chrysanthemums* (1937) hikoyasi tanlandi. Mazkurlar asarlar yozuvchi poetikasida badiiy detalning funksional imkonoyatlarini yaqqol namoyon etishi hamda ramziy va psixologik qatlamlarning uyg'unligi bilan ajralib turishi sababli tadqiqot obyekti sifatida tanlandi[10].

Tadqiqot davomida yaqin o'qish (close reading) metodidan foydalanib, matndagi predmet, peyzaj, rang, portret va ramziy detallar aniqlanib, ularning kontekstual ma'nosi tahlil qilindi[11]. Ushbu metod badiiy detalning matn ichidagi funksional yukini hamda qahramonlar xarakterini shakllantirishdagi o'rinni aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, qiyosiy-tipologik metod asosida *The Pearl* va *The Chrysanthemums* asarlaridagi badiiy detallar o'xshash va farqli jihatlari nuqtai nazaridan solishtirildi. Mazkur metod orqali har ikki asarda detalning poetik funksiyasi, ramziy mazmuni hamda kompozitsion vazifasi tizimli ravishda yoritildi.

Tadqiqotda semantik tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod yordamida badiiy detallar ifodalagan ramziy ma'nolar, ularning muallif konsepsiyasi bilan bog'liqligi va asarning g'oyaviy mazmunini ochishdagi roli tahlil qilindi. Bundan tashqari, poetik tahlil asosida detalning obraz yaratish, psixologik holatni ifodalash va estetik ta'sirni kuchaytirishdagi funksional xususiyatlari aniqlandi.

Qo'llanilgan metodlarning o'zaro integratsiyasi Jon Stenbekning *The Pearl* va *The Chrysanthemums* asarlarida badiiy detalning poetik funksiyasini kompleks tarzda

yoritish, ularning semantik va estetik imkoniyatlarini ilmiy asosda baholash hamda yozuvchi poetikasidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari Jon Stenbekning *The Pearl* va *The Chrysanthemums* asarlarida badiiy detal matnning kompozitsion yahlitligini ta'minlovchi, qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalovchi hamda muallifning estetik konsepsiyasini ochib beruvchi muhim poetik unsur ekanligini ko'rsatdi. Tahlil jarayonida badiiy detallar funksional xususiyatiga ko'ra **ramziy, psixologik, predmet, peyzaj va rang** detallari guruhlariga ajratildi.

*The Pearl* asarida marvarid (the pearl) markaziy ramziy detal sifatida namoyon bo'ladi. Asar boshida u Kino oilasi uchun farovonlik, umid va yangi imkoniyatlar timsoli sifatida tasvirlansa, syujet rivoji davomida ochko'zlik, zo'ravonlik va ma'naviy tanazzul ramziga aylanadi. Marvaridning semantik funksiyasi voqealar rivoji bilan o'zgarib borishi detalning dinamik poetik xususiyatini namoyon etadi.

Asardagi chayon (the scorpion) detali ham muhim ramziy funktsiyani bajaradi. Chayonning Coyotitoga hujumi syujetning boshlanish nuqtasi bo'lib, keyingi voqealar rivojiga sabab bo'ladi. Tahlil natijalari ushbu detal tashqi xavf bilan bir qatorda jamiyatdagi adolatsizlik va inson hayotining mo'rtligini ifodalashini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, kanoe (the canoe) detali Kino oilasining avloddan-avlodga o'tgan merosi, mehnati va erkinligini ifodalovchi ramziy obraz sifatida talqin qilindi. Kanoening vayron qilinishi qahramonning nafaqat moddiy, balki ma'naviy tayanchidan ham ayrilganini anglatadi.

*The Chrysanthemums* hikoyasida esa xrizantema gullari (the chrysanthemums) bosh qahramon Elisa Allenning ichki dunyosi, ijodiy salohiyati va amalga oshmay qolgan orzularining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari gul detallari Elisa shaxsiyatining rivojlanishi va ruhiy holatidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi asosiy poetik vosita ekanligini ko'rsatdi.

Hikoyadagi bog' (the garden) detali yopiq, tartibli va himoyalangan makon sifatida tasvirlanib, Elisa hayotining chegaralangan ijtimoiy muhitini ifodalaydi. Aksincha, sayyor usta (the tinker) obrazi bilan bog'liq yo'l va ochiq makon

detallarida erkinlik va noma'lum hayot timsoli mujassamlashgan. Ushbu qarama-qarshilik asarning poetik strukturasi shakllantiruvchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Elisa Allenning kiyimi (clothing) va tashqi qiyofasiga oid detallar ham psixologik funksiyani bajaradi. Hikoya yakunida uning kiyim almashtirishi va tashqi ko'rinishiga e'tibor berishi qahramonning ichki hissiy o'zgarishlarini hamda o'zini anglash jarayonini aks ettiradi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, The Pearl asarida badiiy detallar asosan ijtimoiy-falsafiy va ramziy mazmunni ifodalashga xizmat qilsa, The Chrysanthemums hikoyasida ular psixologik holat, gender masalalari va individual identifikatsiyasi yoritishda faol poetik vosita sifatida qo'llanilgan. Har ikki asarda ham badiiy detal tasviriy unsur doirasidan chiqib, matnning semantik yahlitligini ta'minlovchi hamda muallif konsepsiyasini ifodalovchi markaziy poetik birlik vazifasini bajarishi aniqlandi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mazkur tadqiqot Jon Stenbekning The Pearl va The Chrysanthemums asarlarida badiiy detalning poetik funksiyasini qiyosiy-tipologik va semantik tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari badiiy detal yozuvchi poetikasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat tasviriy vosita, balki asarning g'oyaviy mazmunini ochish, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalash hamda muallifning estetik konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi poetik birlik ekanligini tasdiqladi.

Tahlil jarayonida The Pearl marvarid, chayon va kanoe kabi detallar ramziy hamda ijtimoiy-falsafiy mazmunni ifodalovchi asosiy poetik vositalar sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Mazkur detallar syujet rivoji bilan birga yangi semantik yuk kasb etib, inson tabiati, ochko'zlik, adolat va taqdir o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishga xizmat qiladi[12]. The Chrysanthemums hikoyasida esa xrizantema gullari, bog va kiyim detallarining Elisa Allenning ichki olami, o'zligini anglash jarayoni hamda gender identifikatsiyasini ifodalashdagi poetik ahamiyati ustuvor ekanligi aniqlandi[13].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, har ikkala asarda ham badiiy detal kompozitsion yahlitlikni ta'minlaydi, biroq ularning funksional yo'nalishi turlicha namoyon bo'ladi. The Pearl da detallar ko'proq ramziy va ijtimoiy-falsafiy vazifani bajarsa, The Chrysanthemums da psixologik va estetik funksiyalar ustunlik qiladi. Bu esa Jon Stenbekning badiiy detalni universal poetik vosita sifatida turli janr va badiiy vaziyatlarda mahorat bilan qo'llaganini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Jon Stenbekning ikki mashhur asaridagi badiiy detallar ilk bor yagona tadqiqot doirasida tipologik va semantik jihatdan qiyosiy tahlil qilindi hamda ularning yozuvchi poetikasidagi funksional o'rni tizimli ravishda yoritildi. Olingan natijalar zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslik, poetika va narratologiya sohalaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Jon Stenbekning boshqa nasriy asarlarida (Of Mice and Men, East of Eden, The Grapes of Wrath) badiiy detalning poetik funksiyasini qiyosiy aspektda o'rganish maqsadga muvofiq;
- Badiiy detallarning narratologiya, kognitiv poetika va ekokritika metodlari asosida tadqiq etish Steinbeck poetikasining yangi qirralarini ochishga imkon beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Lisca P. The Wide World of John Steinbeck. New Brunswick: Rutgers University Press; 1978.
2. Benson J.J. The True Adventures of John Steinbeck, Writer. New York: Viking Press; 1984.
3. Parini J. John Steinbeck: A Biography. New York: Henry Holt and Company; 1995.
4. Shillinglaw S. On Reading The Grapes of Wrath. New York: Penguin Books; 2014.
5. Steinbeck J. The Pearl. New York: Penguin Books; 1992.

6. Steinbeck J. The Long Valley. New York: Penguin Books; 1995. (The Chrysanthemums hikoyasi ushbu to'plam tarkibida.)
7. Abrams M. H., Harpham G. G. A Glossary of Literary Terms. 11<sup>th</sup> ed. Boston: Cengage Learning; 2015.
8. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O'qituvchi; 2005.
9. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: O'qituvchi; 2006.
10. Normatov U. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: Sharq; 2019.